

TURLI XIL SO‘ZLASHUVLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Zuhra Otaniyazova

UrDU nemis tili yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turli xil so‘zlashuvlarning dolzarb muammolari, sabablari va zamonaviy so‘zlashuvlarning uslubining jamiyatimizga ta’siri, shuningdek milliy tilimizning buzilishini oldini olish yo‘llari yoritilib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Zamonaviy til, so‘zlar, til, kavm, muammo, rus tili, ajdabiya til, boyligimiz, g‘uririmiz, o‘zligimiz, savodsizlik.*

Annotation: *In this article, current issues, causes, and impact of modern utterance style on our society as well as ways of preventing the deterioration of our native language are discussed.*

Key words: *Modern language, words, language, people, problem, Russian, literary language, our wealth, our pride, our identity, illiteracy.*

Аннотация: *В этой статье описаны текущие проблемы, причины и влияние современной речи на наше общество, а также способы предотвращения ухудшения нашего национального языка.*

Ключевые слова: *Современный язык, слова, язык, люди, проблема, русский, литературный язык, наше богатство, наша гордость, наша идентичность, неграмотность.*

Dunyo yaratilibdiki odamzot bir-birini tushunishi, muammolarni xal qilish uchun bir-biri bilan avval imo-ishoralar, keyinchalik ovozlari chiqarish natijasida so‘zlar paydo bo‘lgan. Bu so‘zlar yig‘indisidan tashkil topgan odamlar orasida sekin sekin so‘zlar paydo bo‘lgan. Qaysi tovush chiqishiga qarab muomala qilib so‘zlar ko‘paya borgan. Bir-biriga ko‘nikishlari va tushunib borishlari natijasida guruhlar, qabilalarga bora bora hozirgi zamonaviy tilda millatlarga ajratilgan. Tilning o‘rni guruhlar bo‘linishida juda katta ahamiyatga ega. Masalan, oddiy misol o‘rnida o‘zbek tilini oladigan bo‘lsak, bu til ko‘p shevalarga boy. Bir xil shevadagi insonlar bir joyga joylashgan va bir-birini tushunishi, anglashi osonroqdir. Agar adabiy til millatlararo til bo‘lmaganda edi, xattoki bu millatlar bo‘linishiga olib kelish dolzarb masalalari ko‘ndalang turishi mumkin bo‘ga bo‘lar edi. Turli xil so‘zlashuvlar natijasida esa shu so‘zlar ular ongida singib, o‘z tilidek bo‘lib qoladi. Qavmining orasida bir-birini tushunish osonroq yengilroq kechadi, ammo boshqa qavmga

qo'shilsa tushunmovchilik paydo bo'lib, maxallagarchilik oqibatlarida o'zaro kelishmovchilik dolzarb muammolarini keltirib chiqarishi ham muammolarning bir ko'rinishidir.

- Bir kuni Toshkentga bozorga tushdim. Shunda bir voqeaning guvoxi bo'ldim: Bitta kishi ko'rinishidan oddiy, sodda insonligi ko'rinishida turardi. Sotuvchiga: „cholvarni ko'rsating!“ dedi. Sotuvchi esa „nima?“ deb javob berdi, u yana takrorladi: „cholvarni ko'rsating“ deb. Tushinmagan ayol „nima u cholvar degan?“ ovozini ko'tarib gapirdi. U erkak kishi ayolni so'kib, qo'lini siltab ketdi. Men u akaning oldiga borib, aka cholvor bu shim deyiladi deb o'zbekchani o'zbekchaga tarjima qildim.

-Bu xali uzimizning tilimiz, oramizdagi birgina dolzarb muammo. Agarki boshqa tillardan bunday misollarni keltirsak son-sanoqsiz bo'lardi. Masalan rus tilidan kirgan so'zlar xuddi ona tilimizdek bo'lib ketgan. Turmush sharoitida, o'zaro gaplashganimizda bu so'zlarni ishlatmasak gapning ma'nosi yo'qolganday tuyiladi. Shunday so'zlardan Masalan, problema, udje, svejiy voopshe rus tilidagi so'zlar xattoki yosh bolaning ongiga xam singib bo'lgan. Endi bu so'zlarning o'zbekchasini jamoat joylarida ishlatsang xam, yoki bo'lmasa nemis tilidan biron bir mavzuni o'zbekchaga tarjima qilsang o'qigan odamlar bu so'zlarni tez anglamasligi natijasida tushunmovchilik paydo bo'ladi. Tushunmovchilik oqibatida asab buzilish paydo bo'ladi. Asab buzilgandan o'qishga erinchoqlik yoki kitob olib o'qish bir mushkul ishday yuragi betlamay qolishi natijasida savodsizlik ko'payish boshlanadi. Natijada jamiyat isloxotlari orqaga tortishdek dolzarb muammolarni keltirib chiqarishi judayam achinarli xol bo'lib qolishi tayin. Rus tilidagi so'zlarni ishlatish tilning buzilishiga olib kelishi aniq. Albatta til bilgan – el biladi. Ammo bu so'zlarni odamlar orasiga singdirish natijasida adabiy kitoblar o'qiganda mushkullikni tug'dirish xam dolzarb muammodir.

Agar turli xil tillarni qo'shib odamlar orasiga singdirib tashlasak boshqa mamlakatlardagi o'zbeklar uchun xam muammo tug'dirishi mumkin. Chunki o'zbek tili o'zbek uchun Afrikada ham o'zgarmaydi. Tilimiz har xil bo'lib qolishining oldini olish uchun moda tusiga kirgan rus tili bilan o'zbek tilini aralashtirib gapirishimizdan o'zimizni tiyishimiz kerak. Bu boy tarixiy tilimizni mensimaslik belgisidir. Yaxshisi tiniq bir tilni gapirish judayam axloqlikning belgisidir. Sovetlar davrida ikki tilni aralashtirib gapirish zamonaviy ko'rinishga aylangandi. Natijada juda ko'p rus so'zlari o'rnashib o'z ona tilidek bo'lib qolganligi sababli mavzular eshitishda ham tushunmay qolish muammosini keltirib chiqarishi aniq va ravshan. Shuning uchun ham til-bu boyligimiz, o'zligimiz, g'ururimiz deb bekorga aytilmagan. Tilimizni asraylik.

Men boshqa tillarning kirib kelishini inkor qilmayman va o'z fikrimni bildirmoqchiman, faqat qayerdan kirib kelgan bo'lsa shu so'z o'z nomi bilan qolsa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Bunga misol qilib aytadigan bo'lsam «Samolyot»

“xolodilnik” so‘zlarini olsak bo‘ladi. Sayyoragox deb tarjima qilindi. Natijada sayyoragox nima deb tushunmovchiliklar kelib chiqdi. Keyin uchok deb nom berildi. Shunga o‘xshagan so‘zlar asli uzatmasi bilan aytilish tarafdori bo‘lgan bo‘lardim. U so‘zlarni tarjimasini bo‘lmasligini xohlardim. O‘z nomi bilan tarjima qilgan so‘zlar ham tushunmaslik oqibatida savodsizlik, o‘qishga erinishlik kabi dolzarb muammolarni keltirib chiqarishi xam turgan gap. Bu dolzarb muammolar jamiyatimizning rivojlanishiga asoratini ko‘rsatmay qolmasligi xam mumkin.

- Boshqa tillarning aralashuvi natijasida o‘zbeklar aro qarindoshlar aro tushunmovchilikka olib keladigan dolzarb muammo bo‘lib qolishning oldini olish juda muximdir. Masalan, bir qiz bilan do‘stlashdim. U turkiyada tug‘ilgan. Biz xabarlashib turamiz. Ba’zan u men aytgan ko‘p so‘zlarni tushunmay qoladi. Men esa o‘zbekchasini topishga qiynalaman. Masalan men bir kuni unga chyota uyqim kemayapti deb yozdim. U mendan „chyota“ degan nima deb so‘radi. Men shu vaqtda tarjimasini topishga qiynaldim. Bir kuni yana unga yozdim „aytgan gapingni udje yetkazib qo‘ydim“ desam, „udje“ degan so‘z nima deb so‘radi. Bir amallab allaqachon deb tarjima qildim. Shunday tilimizga aralashgan turli xil so‘zlar aralashuvi aytaversam juda ko‘p aslida.

Asrlar davomida saqlanib kelayotgan Jaloladdin Manguberdi, Alisher bobolarimizning go‘zal, boy tili-biz avlodlarining asrab avaylash kerak bo‘lgan faxriy xazinamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Belchikov Yu.A. Adabiy og‘riqlar va norma // lug‘at va frazologiyada adabiy norma. M.: ilm, 1983 yil. - 37-46.
2. Borisova E.G. Zamonaviy yoshlar uchun ba’zi o‘ziga xos xususiyatlarga ko‘ra. Maktabdagi til. -1981. № 3. - p.83-87.
3. Gavra B. tillarni aralashirish muammolariga // tilshunoslikda yangi. Til kontaktlari. - M.: Amalga oshirish, 1972 yil. 6. 94-111 bet.
4. Vasilyev L. M. Tilshunoslikning umumiy muammolari: Ta’lim. Plakat. - Ufa, 1998.149 .
5. Vinokur T.G. Zamonaviy rus tilidagi nutqning stilistik rivojlanishi // Zamonaviy rus adabiy tilining funktsional uslublarini ishlab chiqish. T.G. Vinokur va D.N. Shmets. M: Fake, 1968 yil 1-2-101.